



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **TA'LIMYIY VEB PLATFORMALAR ORQALI TEXNIKUM O'QUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI**

**Nuritdinova Gulnigor Taxirjanovna**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchisi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada ta'limiy veb platformalar yordamida texnikum o'quvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlari tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli ta'lim muhitida veb platformalardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish, nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan. Shuningdek, maqolada ta'limiy veb platformalarning afzalliklari, ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligi hamda texnikum o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishdagi o'rni tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ta'limiy veb platformalar, kasbiy kompetentlik, texnikum o'quvchilari, raqamli ta'lim, innovatsion texnologiyalar, masofaviy ta'lim, ta'lim jarayoni, kasbiy tayyorgarlik.

## **АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИКУМОВ НА ОСНОВЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ВЕБ- ПЛАТФОРМ**

**Нуритдинова Гульнигор Тахиржановна**

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами,  
независимый исследователь

### **Аннотация**

В данной статье анализируется развитие профессиональной компетентности учащихся техникумов с помощью образовательных веб-платформ. В условиях современной цифровой образовательной среды использование веб-платформ играет важную роль в развитии навыков самостоятельного обучения студентов, укреплении теоретических знаний и формировании практических умений. Также в статье рассматриваются преимущества образовательных веб-платформ, их эффективность в образовательном процессе и роль в повышении профессиональной подготовки учащихся техникумов.

**Ключевые слова:** образовательные веб-платформы, профессиональная компетентность, учащиеся техникумов, цифровое образование, инновационные технологии, дистанционное обучение, образовательный процесс, профессиональная подготовка.

## **ANALYSIS OF PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT OF TECHNICAL SCHOOL STUDENTS THROUGH EDUCATIONAL WEB PLATFORMS**

**Nuritdinova Gulnigor Takhirjanovna**

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Independent Researcher

### **Abstract**

This article analyzes the development of professional competence of technical school students through educational web platforms. In the modern digital educational environment, the use of web platforms plays an important role in developing students' independent learning skills, strengthening theoretical knowledge, and forming practical competencies. The article also examines the advantages of educational web platforms, their effectiveness in the educational

process, and their role in improving the professional training of technical school students.

**Keywords:** educational web platforms, professional competence, technical school students, digital education, innovative technologies, distance learning, educational process, professional training.

Asrlar davomida og'zaki adabiyotdan bino bo'lgan yozma adabiyot sarchashmalari nasriy asarlarning janriy taraqqiyotini belgilashda ham muhim o'rin egallaydi. Chunki qissago'ylar Doston aytuvchi, baxshilar, qibal oqinlari, kayvonilar bilan hamisha jozibadorlik kasb etgan. Qadim-qadim zamonlardan buyonoq, o'zbek halqi san'at va madaniyatga katta e'tibor Bugungi kunda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda kasbiy kompetentligini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnikumlarda ta'lim olayotgan o'quvchilar kelajakda turli ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritadigan mutaxassislar hisoblanadi. Shu sababli ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayonda ta'limiy veb-platformalar muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ta'limiy veb-platformalar o'quvchilarga o'quv materiallarini masofadan turib o'rganish, test topshiriqlarini bajarish, interaktiv mashg'ulotlarda ishtirok etish hamda o'z bilimlarini mustaqil ravishda mustahkamlash imkonini beradi. Bunday platformalar o'quv jarayonini samarali tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Hozirgi globallashuv jarayonida zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos holda tayyorlash zarur.

### **Adabiyotlar tahlili**

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ayniqsa, ta'limiy veb-platformalardan foydalanish masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar ta'lim jarayonini raqamlashtirish o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish masalalari A. Abdullayev tadqiqotlarida batafsil yoritilgan bo'lib, muallif zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [10, 37-bet]. Shuningdek, M. Jo'rayev o'z ilmiy ishlarida veb-dasturlash va veb-texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish usullarini tahlil qilib, interaktiv platformalar o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishini qayd etadi [11, 52-bet].

Mustaqil ta'limni tashkil etishning zamonaviy metodlari haqida M. G'afurova tadqiqotlarida ta'lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanish o'quvchilarning bilimlarni mustaqil egallash jarayonini faollashtirishi ko'rsatib o'tilgan [5, 64-bet]. Shuningdek, Shodmonov H. oliy ta'lim tizimida loyihaviy yondashuv va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishini ilmiy asoslab bergan [13, 41-bet].

O'quvchilar motivatsiyasini oshirish ham ta'limiy veb-platformalardan foydalanishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Bu borada O'rozboev B. va To'xtayev N. o'z tadqiqotlarida innovatsion metodlar, jumladan, raqamli ta'lim muhitidan foydalanish o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirishini ta'kidlaydilar [12, 48-bet].

Xorijiy tadqiqotchilar ham raqamli ta'lim muhitining samaradorligini keng o'rganganlar. Jumladan, M. Prensky raqamli avlod vakillari uchun zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti samaraliroq bo'lishini qayd etadi [16, 29-bet]. J. P. Gee esa yuqori texnologik jamiyat sharoitida ta'lim jarayonida interaktiv platformalardan foydalanish o'quvchilarning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi [15, 73-bet].

Motivatsiya va o'quv faoliyatini rivojlantirish masalalari Deci va Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o'zini o'zi belgilash nazariyasi doirasida ham o'rganilgan bo'lib, ushbu nazariyada o'quvchilarning ichki motivatsiyasini shakllantirishda zamonaviy ta'lim muhitining ahamiyati ko'rsatib berilgan [17, 70-bet; 14, 115-bet].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini raqamlashtirishga qaratilgan muhim davlat dasturlari qabul qilingan. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid qarorlar ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning huquqiy asoslarini belgilab beradi [1, 5-bet; 18, 3-bet].

### **Metodologiya**

Mazkur tadqiqotda texnikum o'quvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'limiy veb-platformalarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy metodlar qo'llanildi.

Tadqiqot davomida taqqoslash va tizimli tahlil metodlari qo'llanilib, an'anaviy o'qitish usullari bilan veb-platformalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining o'ziga xos jihatlari solishtirildi. Bu orqali texnikum o'quvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni aniqlab olindi.

Shuningdek, tadqiqotda kuzatish, so'rovnomma va tahliliy baholash metodlaridan foydalanildi. Texnikum o'quvchilarining ta'limiy veb-platformalardan foydalanish jarayoni kuzatilib, ularning bilim darajasi, mustaqil ishlash ko'nikmalari hamda kasbiy tayyorgarligiga ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar umumlashtirilib, pedagogik xulosalar ishlab chiqildi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, ta'limiy veb-platformalar orqali texnikum o'quvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

### **Tahlil natijalari va muhokama**

Texnikum o'quvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda an'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim hisoblanadi. Ta'limiy veb-platformalar aynan shunday innovatsion vositalardan biri hisoblanadi.


Veb-platformalar orqali o'quvchilar o'zlariga qulay vaqtda bilim olishlari, turli multimedia materiallardan foydalanishlari hamda interaktiv topshiriqlar orqali bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Shu sababli ta'limiy veb-platformalar yordamida texnikum o'quvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi ilmiy jihatdan dolzarbdir.

Ta'limiy veb-platformalar internet orqali ta'lim jarayonini tashkil etishga mo'ljallangan axborot tizimlari hisoblanadi. Ushbu platformalar yordamida o'quvchilar o'quv materiallarini o'rganish, topshiriqlarni bajarish, test sinovlaridan o'tish hamda o'qituvchi bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ta'limiy veb-platformalar ta'lim jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ular yordamida masofaviy ta'limni samarali yo'lga qo'yish, o'quv materiallarini elektron shaklda taqdim etish hamda o'quvchilar uchun qulay va ochiq ta'lim muhitini yaratish imkoniyati paydo bo'ladi. Shuningdek, bunday platformalar orqali test topshiriqlari va turli nazorat shakllarini tashkil etish, o'quvchilarning bilim darajasini muntazam baholab borish hamda ularning o'quv faoliyatini monitoring qilish imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, interaktiv mashg'ulotlar, virtual topshiriqlar va multimedia resurslari yordamida o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish mumkin. Shu sababli bugungi kunda ko'plab ta'lim muassasalarida turli xil ta'limiy veb-platformalardan keng foydalanilmoqda va ular o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kasbiy kompetentlik esa mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini ifodalaydi. Texnikum o'quvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni bir necha muhim tarkibiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Avvalo, o'quvchilarning kasbga oid nazariy bilimlarni chuqur egallashi muhim,

chunki nazariy asoslar har qanday kasbiy faoliyatning poydevorini tashkil etadi. Shu bilan birga, kasbiy faoliyatni amalda bajarish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ham muhim o'rin tutadi. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'quvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ya'ni turli manbalardan ma'lumot izlash, uni tahlil qilish va qayta ishlash qobiliyatini shakllantirish ham kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bundan tashqari, jamoada ishlash, samarali muloqot qilish va hamkorlikda faoliyat yuritish qobiliyatini rivojlantirish ham texnikum o'quvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.



Ta'limiy veb-platformalar ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular o'quvchilarga turli elektron resurslar orqali bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi.

#### Tadqiqot tahlilining amalga oshirilish bosqichlari

Tadqiqot bosqichi	Amalga oshirilgan ishlar mazmuni	Qo'llanilgan metodlar	Natija
Muammoni aniqlash bosqichi	Texnikumlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida veb-platformalarning o'rnini o'rganildi	Nazariy tahlil, ilmiy adabiyotlarni o'rganish	Tadqiqot muammosi va yo'nalishi belgilandi
Nazariy tahlil bosqichi	Ta'limiy veb-platformalar, raqamli ta'lim muhiti va kasbiy kompetentlik tushunchalari tahlil qilindi	Tizimli tahlil, taqqoslash metodi	Tadqiqotning nazariy asoslari shakllantirildi
Amaliy tadqiqot bosqichi	Texnikum o'quvchilarining veb-platformalardan foydalanish jarayoni o'rganildi	Kuzatish, so'rovnomalar, pedagogik monitoring	O'quvchilarning kompetensiya rivojlanish darajasi aniqlandi
Natijalarni tahlil qilish bosqichi	Olingan ma'lumotlar umumlashtirildi va taqqoslandi	Statistik tahlil, taqqoslash	Veb-platformalarning ta'lim samaradorligiga ta'siri baholandi
Xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish	Tadqiqot natijalari asosida ilmiy xulosalar va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi	Analitik tahlil	Ta'lim jarayonida veb-platformalardan samarali foydalanish yo'llari belgilandi

Mazkur jadvalda ta'limiy veb-platformalar orqali texnikum o'quvchilarining kasbiy

kompetentligini rivojlantirish jarayoni bosqichma-bosqich tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, amaliy kuzatish hamda natijalarni taqqoslash metodlari asosida veb-platformalarning ta'lim samaradorligiga ta'siri o'rganildi.

Ta'lim jarayonida ta'limiy veb-platformalardan foydalanish o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ta'lim jarayonini raqamlashtirish imkoniyatlari yanada ortib bormoqda. Ayniqsa, texnikumlarda ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun ta'limiy veb-platformalar muhim o'quv vositasi sifatida xizmat qiladi. Chunki bunday platformalar orqali o'quvchilar o'quv materiallarini mustaqil o'rganish, turli interaktiv topshiriqlarni bajarish hamda nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlar bilan mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ta'limiy veb-platformalarning muhim afzalliklaridan biri ularning moslashuvchanligi va qulayligidir. O'quvchilar istalgan joyda va istalgan vaqtda o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, bu esa ularning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, veb-platformalar orqali taqdim etiladigan multimedia materiallar, videolarlar, interaktiv testlar va virtual laboratoriyalar o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Bu esa o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning bilimlarini chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Ta'limiy veb-platformalarning yana bir muhim afzalligi o'quv jarayonini nazorat qilish va monitoring qilish imkoniyatidir. O'qituvchilar ushbu platformalar yordamida o'quvchilarning topshiriqlarni bajarish darajasini, ularning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini hamda o'quv faoliyatidagi faolligini muntazam kuzatib borishlari mumkin. Bu esa ta'lim jarayonini samarali boshqarish hamda o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

#### **Zamonaviy ta'limiy veb-platformalar va ularning imkoniyatlari**

<b>Platforma nomi</b>	<b>Platforma turi</b>	<b>Asosiy imkoniyatlari</b>	<b>Ta'lim jarayonidagi ahamiyati</b>
Moodle	Masofaviy ta'lim platformasi (LMS)	Kurs yaratish, testlar, topshiriqlar, monitoring tizimi	O'quv jarayonini to'liq onlayn boshqarish va nazorat qilish imkonini beradi
Google Classroom	Onlayn ta'lim platformasi	Topshiriqlar berish, fayl almashish, baholash, muloqot	O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlaydi
Code.org	Interaktiv o'quv platformasi	Dasturlash asoslarini o'rganish, amaliy mashqlar	Texnikum o'quvchilarining texnologik va dasturlash ko'nikmalarini rivojlantiradi
freeCodeCamp	Kasbiy ko'nikmalar platformasi	Veb-dasturlash, loyihalar, amaliy topshiriqlar	Amaliy tajriba orqali kasbiy kompetentlikni oshiradi
W3Schools	O'quv-resurs platformasi	HTML, CSS, JavaScript bo'yicha darslar va misollar	Nazariy bilimlarni mustahkamlash va mustaqil o'rganishga yordam beradi

Ushbu jadvalda zamonaviy ta'lim jarayonida keng qo'llanilayotgan ta'limiy veb-platformalar, ularning asosiy imkoniyatlari hamda texnikum o'quvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi o'rni keltirilgan. Mazkur platformalar o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim olish jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnikum o'quvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'limiy veb-platformalarning o'rni juda katta. Chunki ushbu platformalar orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydilar, balki kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni ham shakllantiradilar. Turli elektron resurslar, onlayn mashg'ulotlar va interaktiv topshiriqlar orqali

o'quvchilar o'z kasbiy faoliyatiga oid bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada ularning kasbiy tayyorgarligi oshib, mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga zamin yaratiladi.

Ta'limiy veb-platformalardan foydalanish o'quvchilarning axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Zamonaviy mehnat bozori sharoitida axborot texnologiyalarini bilish har bir mutaxassis uchun muhim talab hisoblanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida veb-platformalardan foydalanish o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshirib, ularning kasbiy faoliyatda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishiga yordam beradi.

Shuningdek, ta'limiy veb-platformalar orqali o'quvchilar o'rtasida hamkorlik muhitini yaratish ham mumkin. Turli forumlar, onlayn muhokamalar va guruhli topshiriqlar orqali o'quvchilar bir-birlari bilan fikr almashadilar, o'z bilimlarini boyitadilar va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### **Ta'limiy veb-platformalarning kasbiy kompetensiya komponentlariga ta'siri**

<b>Kompetensiya komponenti</b>	<b>Veb-platformalardan oldingi daraja (%)</b>	<b>Veb-platformalardan keyingi daraja (%)</b>	<b>Veb-platformalarning ta'siri</b>
Nazariy bilimlar	55	78	O'quvchilarning nazariy bilimlari mustahkamlanadi, o'zlashtirish tezlashadi
Amaliy ko'nikmalar	48	74	Interaktiv mashg'ulotlar orqali amaliy tajriba ortadi
Axborot bilan ishlash ko'nikmalari	50	80	Zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash qobiliyati rivojlanadi
Kommunikativ kompetensiya	52	76	Guruhli topshiriqlar va forumlar orqali muloqot hamda hamkorlik ko'nikmalari oshadi

Mazkur jadval texnikum o'quvchilarining kasbiy kompetensiya komponentlariga ta'limiy veb-platformalarning ta'sirini ko'rsatadi. Natijalar shuni bildiradiki, veb-platformalardan foydalanish o'quvchilarning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, axborot texnologiyalari bilan ishlash malakalari hamda kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada oshirgan. Bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini kompleks ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

**Xulosa** Zamonaviy ta'lim tizimida ta'limiy veb-platformalardan foydalanish texnikum o'quvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqib, o'quvchilarga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ta'limiy veb-platformalar orqali o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari rivojlanadi, nazariy bilimlari mustahkamlanadi hamda amaliy ko'nikmalari shakllanadi.

Shu bilan birga, veb-platformalar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning bilim darajasini nazorat qilish hamda ularning o'quv faoliyatini monitoring qilish imkoniyatini beradi. Natijada o'quvchilarning bilim olish jarayoni yanada tizimli va samarali tashkil etiladi. Bunday platformalardan foydalanish o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Texnikum o'quvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida ta'limiy veb-platformalardan samarali foydalanish kelajakda malakali, raqobatbardosh va zamonaviy bilimlarga ega mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli ta'lim muassasalarida zamonaviy veb-platformalarni joriy etish, ularning imkoniyatlaridan keng foydalanish hamda o'qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim

vazifalardan biridir.

Kelajakda ta'lim jarayonida veb-platformalar imkoniyatlarini yanada kengaytirish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda raqamli ta'lim muhitini takomillashtirish orqali texnikum o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini yanada oshirish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисидаги фармони.
2. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. Веб дастурлаш фани бўйича намунавий ўқув дастури.
3. Code.org; FreeCodeCamp.org; W3Schools.com – интерактив таълим платформалари.
4. Каримов Ш., Худойбердиев Ж. Веб технологиялар асослари. – Тошкент: Тошкент ахборот технологиялари университети, 2022.
5. Гафурова М. Мустақил таълимни ташкил этишнинг замонавий методлари. – Тошкент, 2021.
6. Нуритдинова Г. Сунъий интеллект воситаларининг ўқувчи шахсий компетенцияларини ривожлантиришдаги роли // Педагогик инновациялар журналы. – 2024. – № 2. – Б. 45–50.
7. Нуритдинова Г. Таълимда коммуникатив кўникмаларни шакллантиришда сунъий интеллектнинг методик имкониятлари // Замонавий таълим ва технологиялар илмий тўплами. – 2025. – № 1. – Б. 66–72.
8. Билолов И. Ў., Нуритдинова Г. Т. Сунъий интеллектнинг таълим жараёнини такомиллаштиришдаги ўрни // Мактабгача ва мактаб таълими илмий журналы. – 2025. – № 3. – Б. 350–352. – DOI: 10.5281/zenodo.15142186.
9. Билолов И. Ў., Нуритдинова Г. Т. Таълимда сунъий интеллект технологияларининг қўлланилиши бўйича хорижий тажриба // Қўқон давлат педагогика институти илмий хабарлари. – 2025. – № 1. – Б. 1019–1022.
10. Абдуллаев А. Ахборот технологияларини ўқитишда замонавий ёндашувлар. – Тошкент: Фан ва технология, 2021.
11. Жўраев М. Веб-дастурлаш асослари ва ўқув жараёнида қўллаш усуллари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2020.
12. Ўрозбоев Б., Тўхтаев Н. Таълим жараёнида ўқувчилар мотивациясини оширишнинг инновацион методлари // Педагогика ва психология журналы. – 2019. – № 2. – Б. 45–52.
13. Шодмонов Ҳ. Олий таълимда лойиҳавий ёндашувнинг самарадорлиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022.
14. Deci E. L., Ryan R. M. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. – New York: Guilford Press, 2017.
15. Gee J. P. Teaching, Learning, Literacy in Our High-Risk High-Tech World. – New York: Teachers College Press, 2018.
16. Prensky M. Teaching Digital Natives: Partnering for Real Learning. – California: Corwin Press, 2010.
17. Ryan R. M., Deci E. L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being // American Psychologist. – 2000. – Vol. 55, No. 1. – P. 68–78.
18. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли иқтисодий ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори, PQ–3832. – Тошкент, 2018.
19. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.